

JADID MA'RIFATPARVARLARINING O'LKADA XOTIN-QIZLAR SAVODXONLIK DARAJASINI OSHIRISHDAGI ISLOHOTLARI

Sharipova Dilnavoz Mahmud qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jadid marifatparvarlarining xotin-qizlar ta'limi, ularning savodxonlik borasidagi fikrlari bayon qilinga bo'lib, unda asosiy e'tibor ma'orif, teatr va maktablarga qaratilishi haqida masalalari keltirilgan. Hozirgi kunda Yangi O'zbekistonda ayollar ta'limi va ularga berilayotgan imkoniyatlarning boshlanish davri g'oyasi o'sha davrda ko'tarilgan desak ham bo'laveradi. Shuningdek maqolada ayollarga ta'lim berishilishi oila va jamiyat taraqqiyoti uchun foydali ekanligi jadid marifatparvar olimlari orqali asoslangan.

Kalit So'zlar. jadidlar, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, yangi usul maktablari, diniylik va dunyoviylik, maorif, teatr.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются взгляды джадидских просветителей на образование женщин и их идеи в области грамотности. Особое внимание уделяется вопросам образования, театра и школ. Можно отметить, что идеи, лежащие в основе современных возможностей для женского образования в Новом Узбекистане, берут свое начало именно в тот период. Также в статье на основе трудов джадидских ученых обосновывается, что образование женщин является важным фактором развития семьи и общества.

Ключевые слова: джадиды, Абдурауф Фитрат, Садриддин Айни, новометодные школы, религиозность и светскость, образование, театр.

ABSTRACT

This article discusses the views of Jadid enlighteners on women's education and their ideas regarding literacy. It highlights issues related to education, theater, and schools as key areas of focus. It can be said that the idea of expanding opportunities for women's education in today's New Uzbekistan has its roots in that period. The article also substantiates, through the works of Jadid scholars, that educating women is beneficial for the development of both the family and society.

Keywords: Jadids, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayni, new-method schools, religiosity and secularism, education, theater.

KIRISH

Jadidlar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda xotin –qizlarning savodxonlik darajasi juda ham past ekanligi, ular faqatgina otinoyilar o‘z uylarida ochgan uy maktablarida o‘qib, o‘qish davomida 3-4 tagina diniy suralarni yodlab, so‘ng ular uy ishlari bilan shug‘ullanishi, nari borsa tikish –bichishni o‘rganishi, keyin esa jamiyatda qattiq qonun-qoidaga aylangan erta oila qurish majburiyatini olib, shu bilan bir umr to‘rt devor ichida yashashlarini qattiq tanqid qilib, erkak va ayollar teng haq-huquqqa ega ekanliklari, bola tarbiyasi bilan asosan onalar tarbiyalaganliklari bois, millat taqdiri uchun ularning bilim saviyasini ko‘tarish va yangi maktablar tashkil etishni yoqlab chiqdilar. Jadid ziyolilaridan Yahyo Yo‘ldoshev o‘zining xotiralaridan birida Sadriddin Ayniy bilan qilgan suhbatini yodga olar ekan, shunday yozadi:– “Sadriddin Ayniy Buxoro taraqqiyparvarlaridan bo‘lib, oilamizning eng yaqin kishilari, qo‘shnilarimiz Porsoxo‘ja , Mirzo Izzatullo, Ahmadjon Maxsumlarning aytishicha, domla Buxoro madraslaridan birida ta‘lim olgan, so‘nggi yillarida shaharning ma‘rifatparvar kishilariga bosh bo‘lib, ular bilan tez-tez suhbatlashib turganlar, bu gurungda shoir va tarixchi, musiqa muxlisi va kitob shaydosi Sharifjon Maxsum, Hamdiy taxallusi bilan she‘r yozadigan Ahmadjon Maxsum, Buxoroda qizlar va o‘g‘il bolalar uchun yangi usulda maktab ochib, o‘zbek tilida birinchi marta ibtidoiy maktab o‘quvchilari uchun o‘qish kitobini yaratgan Mirzo Abduvohid–(Munzim) va boshqlar ishtirok etgan”. Shu kabi ma‘lumotlarga ko‘ra bu maktab Buxoroda eski usuldagi diniy maktablaridan farqli ravishda o‘qishni ham yozishni ham o‘rgatar, asosan dunyoviy fanlar haqidagi dastlabki bilimlarni berar edi, qizlar maktabida ham dunyoviy fanlar o‘rgatilgan. Bunday ma‘rifiy ishlarning boshida Sadriddin Ayniy va boshqa jadid ma‘rifatparvarlarining xizmatlari katta hisoblanadi. Jadidlar farzandlar tarbiyasi ayollar qo‘lida ekanligi alohida ta‘kidlaganlar, Sadriddin Ayniy bu haqida quydagi fikrni bildirgan edi: “Agarda xotun kishi tarbiyat topgan, savodli bo‘lsa, farzandini ham tarbiyat qilib taraqqiylilik odami qiladur”[1;43]. Bu tarbiyada ayniqsa, bolalar bilan ko‘proq shug‘ullanadigan ona hal qiluvchi ahamiyatga ega hamda onaning bola tarbiyasiga e‘tiborsizlik bilan qarashi fojiali oqibatlariga olib kelishi mumkinligi jadidlar tomonidan e‘tirof etilgan. Kelajak avlodni, farzandlarni tarbiyalashda onaga yuklatiladigan mas‘uliyatning naqadar yuksakligi, bu borada ayolning, onaning tutgan o‘rni qay darajada muhim ekanligi azal-azaldan tan olinib, munosib baho berib kelingan. Xalq ijodkorlaridan birida aytilishicha: Agar oilada ota tarbiyasiz bo‘lsa, farzandlarning biri , agar oilada ona tarbiyasiz bo‘lsa, farzandlarning bari tarbiyasiz bo‘ladi. Shuning o‘zidanoq bola tarbiyasida, ya‘ni kelajak avlodni shakllantirishda ayolning o‘rni qay darajada katta ahamiyatga ega ekanligi ko‘rinib turibdi. Abdurauf Fitrat kelajak avlodlarning ongsiz,

irodasiz, tarbiyasiz, nodon va johil bo‘lmasliklari uchun xotin-qizlar o‘qimishli, sog‘likni saqlash va bolalar tarbiyasidan xabardor bo‘lishlari kerakligini zarur deb biladi. U tarbiyani juda muhim ijtimoiy hodisa, jarayon deb biladi va unda “Oiladagi mushkul vazifa go‘dak tavalludidan so‘ng er-xotin bo‘yniga tushadigan farzand tarbiyasidir”, deb uqtiradi. Umuman olganda, jadidlarning oila masalasidagi qarashlarida Fitratning “Birinci tarbiya (oilalar tarbiyasi) tarbiyaning eng muhimi hisoblanadi. Uning ta’siri odam tabiatiga mustahkam o‘rnashadi” – degan fikri asos bo‘lib xizmat qiladi. Jadidlar oila va jamiyatda o‘qimishli ayolning o‘rni mavqeyi o‘zgacha ekanligini tushuntirishga harakat qilganlar. Bu haqida manbalardan quyidagilarni bilish mumkin: “xotinlarni o‘qitmoq va ularning oqillarini jilo bermak va erlari birla yaxshi muomalalar qilmoq va bolalarini tarbiyat qilmoqni yaxshi bilmaklari xususida ta’lim albatta zarurdir”.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Umuman, jadidlar xotin-qizlarning ta’lim olishi masalalarini har tomonlama targ‘ib etdilar. Bu yo‘lda ularga nisbatan qilingan to‘sqinliklar ham jadidlarni to‘xtata olmadi. Ma’rifatparvarlar hattoki Rossiya imperiyasi manfaatlarini himoya qiladigan vaqtli matbuot sahifalarida ham o‘lkadagi bu muammo to‘g‘risida ko‘plab chiqishlar qildilar. Misol uchun, Sadriddin Ayniy “biz zaifalarning umr guzaronligimiz behayodadur va yana bizlarga ilm o‘qitmaydurlar va bizlarga maktab yo‘qdir. Ota-onalarimiz har bir xalqning salomatligi xotinlar qo‘lidadur. Agarda xotin kishi tarbiyat topgan, ilmlik bo‘lsa, farzandini ham tarbiyat qilib odami qiladur ” - degan fikrni bildiradi. Ismoilbek Gasprinskiy 1884 -yil “usuli jadid”maktabini ochib, maorif tizimini isloh etish borasida go‘yalarini “ Tarjimon” gazetasida e’lon qilib, maorif tizimi oldida hal etish kerak bo‘lib turgan vazifalardan biri - qizlar maorifiga ham alohida e’tibor berish lozimligini ta’kidlagan. Fitrat xotin-qizlar - qadr-qimmat va teng huquqligining kuchli tarafdori edi,— deb xotirlaydi shoira Mahbuba akasi Abdurauf Fitrat to‘g‘risida—“Meni biror joyda o‘qishimni xohlar edi. Toshkent shahrining Vatan ko‘chasida joylashgan Mashrik Afandi (Elbek) o‘qituvchilik qilayotgan maktabga kirishga yordam berdi”. Abdurauf Fitrat: “hamma shaharliklar va dehqonlarni o‘z bolalarini o‘qishga yuborishiga chorlayman. Mening singlim ham maktabda o‘qishini davom etishi kerak,— deb hisoblagan.A.Fitrat ilm diniy va dunyoviy ishlarni bajarish uchun zarur ekanligini, qizlar avval savod va hisobni, keyin diniy ilmlarni o‘rganishlarini ta’kidlagan. “Ular biror kasbni egallashlari uchun , albatta ,oliy ilmlardan birini, ya’ni tabobat, handasa, tarbiya, huquq kabi ilmlarni egallashlari zarur”, – deb aytgan. Shuni asos sifatida qabul qilib, qizlarnnng o‘qishlari uchun jadidlar maktablar ochib, ularning sonini ko‘paytirish kerakligini targ‘ib

etadilar. Bu yoʻlda ular eski turmush, eski axloq normalari, qizlarni zoʻrlab erga berishga qarshi chiqadilar. Abdulla Avloniy oʻzining “Kim nimani yaxshi koʻrar maqolasida Turkiston hayotining baʼzi jihatlarini tanqid ostiga oladi. Maqolada shunday jumlar keltirilgan “Onalarimiz bilim va tarbiya olish oʻrniga erlari ila urushib-talashub qizlariga mol yigʻmakni yaxshi koʻrurlar. Otalarimiz bolalarni oʻqitib, taʼlim bermak oʻrniga hammollik qildirishni yaxshi koʻrurlar”[2;227]. Oʻlkadagi maʼnaviy hayotga nazar tashlaydigan boʻlsak, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida ommalashgan otinchilik qizlar uchun boshlangʻich taʼlim vazifasini ado etdi, ularga bibixalifa yoki bibliotinlar dars berganlar. Maktab yillarida qizlar oʻz bibliotinlari boshchiligida asosan, “haftiyak”ni Qurʼonning 2-3 surasini oʻqib oʻrganganlar. Qurʼonning boshqa suralarini esa uylarida oʻrgatishgan. “Qizlar uchun ilm mutlaqo ortiqcha. qizlarni tikish, bichish va toʻqishga oʻrgatishlar, oʻqish va yozishni chetga surib qoʻyinglar,— degan jamoatchilik fikrining mavjudligi adabiyotlarda keltiriladi. Kamdan-kam qizlar oʻqishga oʻrgatiladi, undan ham kam hodisalarda yozishga, qizlarning koʻpchiligi asosan kunduzgi ibodat, namoz oʻqish bilan band edi. Turkistondagi maktablarda qizlar koʻprok fors va turk sheʼriyatini oʻrganib, yozuvga kam eʼtibor berganlar. Maktablarni tugatishlari bilan qizlarning oʻqishiga yakun yasalgan. Baʼzi joylarda qizlar maktabi boʻlsada, ota- onalar bir yildan keyin qizlarining oʻqishini toʻxtatib qoʻyar, odatda ularni juda yosh turmushga berib yuborardilar. Bularning barchasi XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston maktab-maorifining oʻziga xos xususiyatlaridan biri edi. Yana shu oʻrinda shuni aytish mumkinki, Rossiya imperiyasi tomonidan taʼlim sohasi uchun deyarli mablagʻlar ajratilmagan. Ular keyinchalik rus madaniyatini xalq ongiga singdirish uchun rus-tuzem maktablarini tashkil etdilar. Shunday sharoitda jadidlar oʻz mablagʻlari hisobidan yangi usul maktablarini ochib, ularda oʻgʻil va qiz bolalarning birga oʻqishlarini tashkil eta boshladilar. Shunday maktablardan birida Abdulqodir Shakuriy Samarqandda oʻgʻil va qiz bolalarni birga oʻqita boshladi, qizlarga uning xotini dars berishga koʻmaklashgan. Abdulqodir Shakuriyning bunday ishi mahalliy boylar, ruhoniylarning noroziligiga sabab boʻlgan. Shunday boʻlsa-da, bunday maktablar Turkistonning boshqa shaharlarda ham ochila boshlagan. Arxiv hujjatlarida yozilishicha, Toshkentdagi Eshonxoʻja Xonxoʻjayev yangi usul maktabida 3 ta qiz, Sobirjon Rahimovning maktabida 15 ta qiz oʻqigan. Qoʻqon shahrining Gʻalchasoy mahallasida Muhammadjon Xoliqiy 1913-yilda dastlab “usuli jadid”, keyin esa qizlar maktabini ham tashkil qilgan. Unda singlisi Soliyaxon Abduxolik qizi oʻquvchilarga saboq bergan. Abdulla Avloniy maktabida ham qizlar oʻgʻil bolalar bilan yonma-yon oʻtirib, tahsil olgan. Ostroumov bergan maʼlumotga koʻra, “jadid maktablarida oʻzlashtirilgan bilimlar yuzasidan imtihonlar tashkil

qilingan. O'quvchilar imtihon savollariga yaxshi javob berishgan, shu imtihonlarning birida bir yosh qiz hammani lol qoldirgan. Yuqorida ko'rsatilgan Sobirjon Rahimovning "Rahimiya" maktabida o'tkazilgan imtihondan so'ng "Toshkent xabarlari" gazetasining muallifi qizlar maktablarini ko'paytirishni taklif qiladi. Buxoro jadidlari yo'l boshchilaridan biri Sadriddin Ayniy ham dastlabki o'qish yillarini qizlar maktabida o'tkazgan. U o'z xotiralarini shunday xotirlaydi. "Maktab yoshiga yetganimda otam meni qishlog'imiz Suktare masjidi qarmo'g'idagi maktabga berdi. U maktabda biror narsa o'rgana olmadim, shundan keyin otam meni bu maktabdan olib, qishloq imomi xotiniga qarashli qizlar maktabiga berdi. Bu maktab o'g'il bolalar maktabiga qaraganda birmuncha durust edi [3;7]. Ma'lumotlarga ko'ra, jadid maktablari qizlar 7 yoshdan o'qishni boshlab 13 yoshga to'lganda tugatganlar. Tavalloning "Qarindosh va hamshaharlarimiz mazluma qizlar tilidan" she'rida qizlar ulardan "halokatdan" "malomatdan" qutqarishni o'qitishni, erk va hurlik berishni so'raydilar. Hattoki, kelajakda oila, tenglik va saodatli, muhabbatli va sadoqatli turmush masalasini o'rta qo'yadilar". Jadidlarning diqqat markazida doimo ayollar masalasi turgan. Bu haqida Rustam Sharipovning "Turkiston jadidchilik harakati tarixidan" asarida jadid adabiyotining yirik vakillaridan biri Fitrat haqida to'xtalib, uning "Oila" nomli risolasi ayollarning haq-huquqlari, jamiyatda tutgan o'rni ham, bevosita maktab bilan bog'ligini aytib o'tadi. Bu risolada bir farangi (jadidchilik nomoyondasi) bilan bir mudarris (eskilik tarafdori bo'lgan ulamo) o'rtasidagi suhbat bayon etilgan. Farangi mudarrisdan Buxoroyi sharifda ayollar o'qiydimi deb so'raganda yo'q deb javo qaytaradi. Farangi bunga javoban Amerka va Fransiya ayollari o'z ixtirolari bilan dunyoni lol qoldirayotganda, nega ularni ta'limga jalb etmaysizlar deb so'raganda, mudarris ayolning vazifasi tug'ish va nasl qoldirishdir, bizda ta'lim 37 yoshda tamom bo'ladi, axir ularni 37 yoshda kim o'z nikohiga oladi deb, o'z fikrini tasdiqlaydi. Farangi axir jadid maktablarida ta'lim 13 yilda tamom bo'lishini qizlar o'qiydigan bo'lsa ular 19 yoshda o'qimishli, dunyo sirlaridan xabardor bo'lishini tushuntiradi biroq mudarris buni tushunmaydi. Asar so'ngida mudarrisning onasi ham ilmsiz bo'lgan, shuning uchun ham mudarris ham ilmsiz degan xulosaga kelinadi. Bu asarning yozilish maqsad yangi jadid maktablariga musulmon ayollarini jalb etish edi. Ma'rifatparvarlar Turkiston xotin-qizlarining dunyoviy ishlarda qatnashishlarini yoqlab chiqib boshladilar. Jadidlar fikricha, xotin-qizlar o'z ayollik huquqini anglab, talab qilishi, tiklashga intilishi, uni tuban kimsalardan himoyalashi jamiyatning teng huquqli a'zosi bo'lishi uchun diniy va dunyoviy bilim imkoniyatlaridan foydalanish sharoitlari yaratilishi zarur. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida xotin-qizlar masalasining ko'tarilishi qonuniy hol edi. Ularni hal etish yo'llarini Sora Muzaffariya

bayon etgan va xotin-qizlardagi iste'dod va qobiliyatini yuzaga chiqarishga qo'ymaslikka hech kimning haqqi yo'q deb hisoblaydi va xotin-qizlarni o'z huquq – erkinliklari uchun kurashga chorlaydi [4;23] O.S. Lebedeva “Hozirgi davrda musulmon ayolini qullik iskanjasidan qutqarish vaqti keldi,—deb butun jahonga murojaat qiladi va turli davrlar mamlakatlar xotin-qizlarining hayoti, huquqlarini solishtiradi, Sharq ayollarini asriy uyqusidan uyg'onishga chorlaydi. Fayzulla Xo'jayev ham xotin-qizlarning erkaklar bilan teng huquqligini ta'minlashga muhim e'tibor berar edi. Uning fikricha, ayollar faqatgina huquqiy holatda erkaklar bilan teng huquqli deb e'tirof etilishi xotin- qizlarning amalda teng ekanligini anglatmaydi. Ayollarning erkaklar bilan amalda teng huquqligiga erishish uchun mehnatni muhofaza qilish, ta'lim olish, fabrika va zavodlarda ayollar malakasini oshirishda bir qator imtiyozlar berilishi, xalq ta'limi bo'yicha pul ajratmalarini joriy etish, ona va bolalar uylari qurilishi lozim, deydi[5;4]. Jadidlar tenglikka erishish uchun qizlarimiz ilm olsin, ma'rifatli bo'lsin deb uqtirganlar. Ayollar ilm olishda erkaklar bilan barobar bo'lsin, degan fikrni ilgari surar edilar. Abdulla Avloniy mutlaqo har ikki jins vakillari og'ir-u engil mehnatda teng ishlasinlar demaydi, aksincha, azaliy sharkona an'analardan kelib chiqib, har kim o'z vazifasini puxta bilishi, ado etishi kerak deb hisoblaydi, xotin- qizlarni hayoli va iffatli bo'lishga chaqiradi. Bir qator misollar vositasida o'zbek xotinqizlarining erkaklar bilan teng huquqli bo'lishi kerakligi ko'rsatib beriladi. Ilm erkaklar bilan bir qatorda xotin-qizlarga ham nihoyatda zarurligi ta'kidlanadi. Bu masalada Munavvarqori o'z munosabatini bildirib, “men ko'p vaqtdan beri ayollarni ancha tezroq, ozod qilish, maktablarda erkaklar bilan tenglik asosida o'qitish va ishga jalb etish”.—deb o'zining shaxsiy fikrini bildirgan .

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida jadid ma'rifatparvarlari o'lkadagi xotin-qizlare savodxonligini oshirish yo'lida muhim va tarixiy ahamiyatga ega islohotlarni amalga oshirdilar. Ular o'lkadagi ta'lim ahvoli, ayniqsa xotin-qizlarning savodxonligining pastligi va ularning huquqlarini cheklanganligi sababli zamon talablariga xos bo'lgan ta'lim shakli va maktablarni yaratishga bel bog'ladilar hamda ta'limni jamiyat taraqqiyotining asosi deb bilib, ayniqsa ayollarning bilimli bo'lishi millat kelajagini belgilashini chuqur angladilar. Chunki, Sharq ayollari ta'lim darajasi bo'yicha ancha orqadan qolgan, umuman o'qitilmagan yoki qisman yuzaki diniy bilimlar va hunarlarni qisqa muddatda o'qitish bilan cheklanib qolishgan. Hattoki jamiyatdagi ayrim tabaqalar ayol kishini faqat uy ishlari, xotinlik va nasl qoldirish uchun vosita hisoblashgan. Aynan shu davrda jadid ma'rifatparvarlari ayol kishi ham erkaklar bilan xil shaklda bilim olishlari hamda ayollar va erkaklar bir jamoada o'qishi mumkin bo'lgan yangi turdagi maktablar

ochish tarafdorlari bo'lishgan. Bu maktablarda faqatgina o'qish yozish va diniy ilmlardan tashqari, zarur bo'lgan dunyoviy fanlar ham o'qitilgan. Chunki, bu davrga kelib G'arbdagi ayollar turli xil sohalarda ilm va kashfiyotlar bilan erkaklardan hech ham kam emas edi. Jadidlar esa ta'lim rivojlangan mamlakatlardan andozlar o'rganib, o'z maktablarida ularni joriy qilishgan. Ular bu maktablarda avvalo o'z oilasidagi xotin-qizlarni o'qitsi bilan o'rnak bo'lishgan. Keyinchalik Chor Rossiyasi ham o'lkada rus tuzem maktablarini ochishni boshlagan. Bu maktablar va jadid maktablari o'rtasida farq bo'lib, ularning maqsad va fazifalari har xil bo'lib, Chor Rossiyasi yangi maktablarga mablag'lar ajratmagan. Shu sababli, jadid maktablarini jadid ma'rifatparvarlarining o'zi moliyalashtirganlar. Ularning tashabbuslari nafaqat savodxonlik darajasining oshishiga, balki ayollarning ijtimoiy faolligi va o'z huquqlarini anglashga ham zamin yaratdi. Garchi bu islohotlar o'sha davr sharoitida turli to'siqlarga duch kelgan bo'lsa-da, ular keyingi davr ta'lim tizimi va jamiyat taraqqiyotiga mustahkam poydevor bo'lib xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. S.Ayni . Musulmonlar xayoti.//Turkiston viloyatining gazetasi. 1906. 16-19 iyul
2. Avloniy A. Kim nimani yaxshi ko'rar. Tanlangan asarlar. –T.: 1998.
3. S. Ayni xayoti va ijodi / tuzuvchi M. Hasanniy T- O'qituvchi. 1994.
4. Azizov. N .Davlat arbobining hukukiy qarashlari // Hayot va qonun.1996.
5. Avloniy A. Tanlangan asarlar.–T.: Ma'naviyat, 1998.–B. 58.